

## ONORE DE BALZAKNING “INSON KOMEDIYASI” ASARI HAQIDA

**Rahmonova Nasiba Bahrom qizi**

Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston milliy Universiteti

**Annotatsiya:** Onore de Balzak 1831-yilda XVIII asr oxiridagi fransuz inqilobidan keyingi dunyoning ma'naviy, badiiy qiyofasini yaratishni maqsad qilib, o'zining barcha yozgan asarlariga yagona "Insoniyat komediyasi" nomini berdi. Bu maqolada o'sha asarning tahlili va bu asar inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini yoritib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** Onore de Balzak, fransuz inqilobi, Insoniyat komediyasi, fojiali komediya, jamiyat fojiasi, individuallashtirgan tip, botiniy va zohiriy qiyofa, yangi davr axloqi, Kim ochdi savdosi, Savri teri tilsimi, Rafael, magic (sehrli) realism uslubi, Balzak sindromi.

Mashhur fransuz adibi Onore de Balzak umrining oxirigacha bir adabiy maslakka sodiq qoladi. "Insoniyat komediyasi" asari inson taqdiri, inson fojiasi ana shu taqdir va fojialardan yaxlitlashgan fojiali komediya edi. Bu asarlarda sarguzasht ham, romantika ham, kulgi ham yo'q. Musibatli hayot va turli taqdirlarning achchiq komedik ko'rinishlari, manzaralari aks etgan edi. U avval boshdanoq ijtimoiy hayotning barcha qirrasini qamrab olishni maqsad qildi. Bu maqsadiga erishdi ham. Uning asarlarida uchramaydigan tabaqa yoki sohaning o'zi yo'q. Barcha soha haqida bittadan bo'lsada asar yozib chiqdi va ijodini o'z davrining "Badiiy ensiklopediyasi"ga aylantirdi. Yozuvchi bu turli tabaqa hamda kasb egalari obrazlarini yaratar ekan, inson kasbi, mavqeyi va tabaqasidan qat'iy nazar u baribir inson ekanini, jamiyatda ularning inson sifatida o'z o'rni bo'lishi kerakligini, ular bilan bog'liq fojia esa jamiyat fojiasi ekanini uqtiradi. U ijodida individuallashtirgan tiplarni ya'ni butun insoniyatning botiniy va zohiriy qiyofasini, umumlashma tiplarini yaratdi. "Insoniyat komediyasi"da o'zigacha bo'lgan adabiy uslublarga xos romantik

kayfiyat, o'tmish afsonalariga moyillik yo'q. Balzak qahramonlari sarkardalar, mo'jizaviy qahramonliklarga qodir qo'mondonlar, boshidan g'aroyib sarguzashtlarni o'tkazgan sayyohlar, sehr-u jodular bilan yashaydiganlar emas. Balzak tasvirlaydigan jamiyat ham, qahramonlar ham aniq. U o'zi yashayotgan inson jamiyatini, yangi davr axloqini boricha tasvirlashga kirishadi va bu yangi davr qahramonlari uning asosiy qahramonlariga, obrazlariga aylanadi. Balzak yangi tabaqaning hayotini yoritarkan, ularning hayoti, taqdir ramzini topgandek bo'ladi. Bu tabaqaning taqdiri ham, hayoti ham xuddi o'zi ruju qo'ygan birjaga, “Kim ochdi savdosi'ga o'xshaydi. Uning ko'ngli ham kim ochdi savdosining o'zi. Uning ma'naviy mayog'i, intilishi, mehrobi birja va bank, savdo, oldi-berdi, hisob-kitoblardan iborat. Insoniyat yangi tabaqasi faqat bitta maqsadda foyda uchun, pulga-pul qo'shish, moddiy nafsini qondirish uchun yashaydi. Uning muqaddas tushunchalari ham ana shu birja va bank, savdo bilan bog'liq. Hatto hissiyoti va tuyg'ularini ham birja boshqaradi. Bu jamiyatning birdan-bir maqsadi-boylik orttirish. Inson qadri hech narsa emas. Inson qadri toptalgan joyda esa mohiyat ham, axloq ham, go'zallik va ezgulik ham o'z mazmunini yo'qotadi. Mazmunini yo'qotgan jamiyatni tubanlik botqog'i o'z qariga tortadi. Turkumga kirgan “Savri teri tilsimi” romanida Balzak Rafael qiyofasida endi shakllanib kelayotgan, o'zi ham kapitalga aylangan tabaqaning ma'naviy dunyosini ochib beradi. Rafael pul va boylik topish, shon-shuxrat shohsupasiga chiqish, o'z orzu-havaslariga yetishish uchun tanasini, iymonini va qalbini sirli savri terisidan qilingan sehr-u joduga almashtiradi. Ya'ni o'z tanasiga iblisona sehrni kiritadi. Oqibatda har bir orzusi amalga oshganda terisi qurib, hayot sekin-asta uning tanasini tark eta boshlaydi. Oxiri Rafael o'z sevgilisini qutqarish uchun o'zini o'limning qo'liga topshiradi. Bu holat pul, shon-shuxrat, boylik, hasham, manmanlik izidan quvgan barchaning tipiklashgan, umumlashma obrazidir. Eng muhimi, savri terisi ramzi orqali inson hayoti va taqdirini tahlil qilish bilan Balzak yuz yilcha oldin adabiyotga, keyinchalik lotin Amerika adabiyotiga nisbatan berilgan magic ya'ni sehrli fusunkor realizm uslubini olib kirgan edi.

“Inson komediyasi” epopeyasi adabiyot tarixida misli ko'rilmagan badiiy hodisa, madaniy obida, inson qalbi, faoliyati va ma'naviyatining badiiylashgan

hujjatidir. Ulug’ adib jahon adabiyotining yetuk namoyondalari Dikkens, Tolstoy, Dostoyevskiy kabilarning ijodiga katta ta’sir o’tkazdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. ZIYOUZ.com
2. SAVIYA.UZ
3. Library.navoiy-uni.uz

